



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 20-sentabr

470-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim muassasalarida yuridik ta’limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-avgustdagi 532-son qarori ijrosi haqida” 419-6-0-Q/24–sonli qarori to‘g‘risida.**

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim muassasalarida yuridik ta’limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27- avgustdagi 532-son qarori ijrosi haqida” 419-6-0-Q/24–sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim muassasalarida yuridik ta’limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27- avgustdagi 532-son qarori ijrosi haqida” 419-6-0-Q/24–sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmonida quyidagilar belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi:

maktablarda “Huquq sinfi” va huquq fanlari chuqurlashtirilgan holda o‘qitilishini tashkil etish orqali yuridik kadrlarni tayyorlashda “maktab - litsey - texnikum - universitet” tizimini joriy etish;

Namangan va Samarqand viloyatlari yuridik texnikumlari negizida Toshkent davlat yuridik universitetining akademik litseylarini tashkil qilish hamda ularning iqtidorli bitiruvchilarini “yurisprudensiya” yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalariga suhbat asosida test sinovlarisiz qabul qilish;

Adliya vazirligining maxsus elektron platformasi orqali huquq fani o‘qituvchilarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish hamda ularni metodik ta’minlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

o'quvchilar o'rtasida "Huquq bilimdoni" fan olimpiadasi, huquq fani o'qituvchilari o'rtasida "Eng yaxshi huquq o'qituvchisi" ko'rik-tanlovini o'tkazib borish; maktab o'quvchilarining huquqiy bilimlarni mustaqil o'zlashtirishiga qaratilgan ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari, videoroliklar, kompyuter o'yinlari va mobil ilovalarni yaratish;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Namangan va Samarqand viloyatlari akademik litseylariga (keyingi o'rinlarda - akademik litseylar) qabulni 2024/2025-o'quv yilidan boshlab amalga oshirish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

Quyidagilar umumta'lim muassasalarining "Davlat va huquq asoslari" fani doirasidagi asosiy vazifalari etib belgilanligi; umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda, "Davlat va huquq asoslari" fani chuqurlashtirib o'qitilishini tashkil etish;

o'quvchilarni "yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha variativ o'quv rejalari asosida ta'limning keyingi bosqichlarida samarali ta'lim olishga tayyorlash;

nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash amaliyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan mahorat va o'quv darslarini o'tkazish uchun yuridik amaliyot xodimlarini jalb qilish orqali darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish;

o'quvchilar "Davlat va huquq asoslari" fanini mukammal o'zlashtirishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, shu jumladan, shaxslararo muloqot, zarur huquqiy ma'lumotlarni tez qidirib topish va mustaqil taxlil qilish hamda bu borada o'z munosabatini bildirish qobiliyatlarini rivojlantirish;

yuqori kasb mahoratiga hamda professional tayyorgarlikka ega bo'lgan tajribali pedagog o'qituvchilarni jalb qilish;

o'quvchilarni "Davlat va huquq asoslari" fanidan maktab, tuman (shahar), viloyat va respublika olimpiadalarida hamda boshqa tadbirlarda ishtirok etishga tayyorlash;

belgilanishicha:

a) "Huquq sinfi"ga o'quvchilar "Davlat va huquq asoslari" faniga qiziquvchi 8- sinf o'quvchilari orasidan saralanib, maktab pedagogik kengashi tavsiyasi asosida direktorning buyrug'i bilan o'tkazilishi;

b) 2024/2025-o'quv yilidai boshlab "maktab - litsey - texnikum - universitet" uzluksiz ta'lim tizimi asosida akademik litseylarni muvaffaqiyatli tugatgan o'quvchilar (ikki yillik o'qish davrida har bir o'quv yili yakuniga ko'ra o'zlashtirish baholari "5 (a'lo)" va "4 (yaxshi)", biroq o'zlashtirish baholarining kamida 50 foizi "5 (a'lo)" bo'lgan bitiruvchilar) test sinovlarisiz to'g'ridan-to'g'ri (to'lov-kontrakt asosida), yuridik texnikumlarga qabul qilinishi;

v) akademik litseylar tegishli Namangan va Samarqand viloyatlari yuridik texnikumlarining huquq va majburiyatlari, shuningdek, tuzilgan shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanishi;

g) Namangan va Samarqand viloyatlari yuridik texnikumlarining amaldagi o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish yakunlanguniga qadar ilgari belgilangan tartibda akademik litseylarda davom ettiriladi, texnikumlar o'quvchilariga nisbatan ilgari belgilangan imtiyozlar saqlab qolinadi hamda bitiruvchilarga tegishli mutaxassislik bo'yicha diplom berilishi;

d) Namangan va Samarqand viloyatlari yuridik texnikumlari xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda akademik litseylardagi mavjud shtat birliklari va mehnatga haq to‘lash miqdorlari doirasida ishga qabul qilinishi;

e) akademik litseylarning ijrochi direktori litseyning faoliyatiga oid barcha masalalar, jumladan moliyaviy masalalar, ma‘muriy boshqaruv va o‘quv jarayonini tashkil etish uchun javobgar hisoblanishi;

j) akademik litseylarning o‘quv-uslubiy jarayoni yuridik ta‘limning uzluksizligi va izchilligini ta‘minlashni hisobga olgan holda, Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan muvofiqlashtirilishi;

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni qonunga itoatkorlik va huquqbuzarlikka toqatsizlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1- ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi 562-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish, o‘tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g‘oliblarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga 2-ilovaga muvofiq qo‘shimcha kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Adliya bo‘limi (H.Qobilov), Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (E.Ermirzayev) manfaatdor bo‘lim va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi 532-son qarori talablari doirasida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**